

PAXTAKOR HAYOTI



PAXTAKOR TUMANI HOKIMLIGI MUASSISLIGIDA NASHR ETILMOQDA

№ 02 (5734)

2024 yil 17-YANVAR CHORSHANBA

paxtakorhayoti1@inbox.uz • (91) 569-59-18 • ISSN 2010-8443 •



PAXTAKOR TUMANI HOKIMI A. ASHUROVNING 14-YANVAR - VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN TABRIGI

Assalomu alaykum, hurmatli tuman-
doshlar, harbiy xizmatchilar!

Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Avvalo, Siz azizlarni, sizlar orqali butun tumanimizning mard, jasur posbonlarini O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va 14 yanvar "Vatan himoyachilari" kuni bilan chin qal-bimdan samimiy muborakkob etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyom tom ma‘nodagi umumxalq bayramiga, azaldan xalqimizga xos bo‘lgan vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlar timsoliga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Biz bahodir va dovyurak harbiylarimiz bilan – o‘zining muqaddas qasamyodiga sodiq qolib, xizmat burchini yerda ham, ko‘kda ham sharafla ado etayotgan yurtimizning zabardast o‘g‘lonlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Hurmatli mard va jasur Vatan himoyachilari!

Biz sizlarning timsolingizda milliy armiyamizga tog‘dek tayanch bo‘lib turgan buyuk ma‘naviy kuchni ko‘ramiz. Bugungi ulug‘ ayyomda sizlarning ham Vatanimizning mudofaa qudratini oshirishda munosib hissangiz borligini yana bir bor katta mamnuniyat bilan e‘tirof etamiz.

Fursatdan foydalanib, Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan qo‘rqmas va haqiqiy vatanparvar askar va ofitserlarning ota-onalariga, shuningdek, harbiy hayotning butun quvonch va tashvishlarini turmush o‘rtoqlari bilan baham ko‘rib kelayotgan mehribon va sabr toqatli rafiqalariga chuqur minnatdorlik bildiram.

Barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt va saodat, sharaflilik va mas‘uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Xalqimizning yuksak ishonchi va hurmat-ehtiromi sizlarga hamisha yor bo‘lsin!

Tuman hokimi:
A. ASHUROV.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

HAQIQIY XALQ BAYRAMI SIFATIDA NISHONLANDI

Ma‘lumki, O‘zbekiston hududida joylashgan harbiy tuzilmalarning 1992 yil 14 yanvardan respublika yurisdiksiyasiga o‘tkazilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining "Vatan himoyachilari kunini belgilash to‘g‘risida"gi Qonuniga muvofiq "14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni" deb belgilandi va har yili mamlakatimiz bo‘ylab ko‘tarinki ruhda, haqiqiy xalq bayrami sifatida nishonlab kelinadi.

mizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan milliy armiyasiga ega, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

Shuningdek, tadbirda xalqimiz va ona



Bu bejiz emas, albatta. Siz-u bizning bugungidek tinch, xotirjam hayotimiz Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda himoya qilinmoqdaki, mana shunday mas‘uliyatli burchni sidqidildan ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo‘layotgan o‘g‘lonlarimizni har qancha e‘zozlasak, ko‘kka ko‘tarsak, arziydi.

Joriy yilda ham sana munosabati bilan hokimlikning majlislar zalida tantanali tadbir o‘tkazildi.

Shu munosabat bilan hududdagi harbiy tuzilmalar va huquq-tartibot idoralari rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari jam bo‘ldi.

Tantanali tadbirda tuman hokimi Asilbek Ashurov, tuman prokurori Ikrom Begashev, Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va harbiy havo kuchlari qo‘mondonligiga qarashli harbiy qism komandirining o‘rinbosari Sherzod O‘tashev, tuman Mudofaa ishlari bo‘limining boshlig‘i, podpolkovnik

Begzod Narqulovlar so‘zga chiqib, barcha ishtirokchilarni bayram bilan qizg‘in tabrikladilar. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev ta-shabbusi bilan milliy armiyamizning jangovar salohiyati, mudofaa qudrati tobora yuksalib borayotgani, harbiy xizmatchilar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotganini ta’kidladi. O‘z hayotini el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini asrashdek sharaflilik bag‘ishlagan harbiylarning mashaqqatli faoliyatini alohida e‘tirof etdilar.

Darhaqiqat, ana shunday fidoyi farzandlar bor ekan, ertangi kunga ishonchimiz ham yuksalib boraveradi. Zero, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh qo‘mondoni rahnamoligida bugungi kunda O‘zbekiston amalda o‘zining zamonaviy, ixcham va harakatchan, yaxshi qurollangan, mamlakatimiz barkarorligi va xavfsizligini, sarxadlarimiz daxlsizligini, xalqi-

Vatan oldidagi xizmat burchini a‘lo darajada uddalayotgan bir guruh harbiylarni taqdir-lash marosimi ham juda qiziqarli o‘tdi.

Mustaqilligimiz, jonajon O‘zbekistonimiz, xotirjam va osuda kunlarimiz, jamiyatimizdagi hamjihatlik, ahillikni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar esa tadbir ruhiyatiga yanada jo‘shqinlik baxsh etdi.

Hurmatli harbiylar, aziz Vatan himoyachilari!

Sizlarning fidokorona mehnatlaringiz tufayli farovon turmush tarzida yashab, tinch va osuda mehnat qilayotgan jamoamiz va ko‘psonli mushtariylar nomidan barchangizni yana bir bor "14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni" bayrami bilan tabriklaymiz, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik tilab qolamiz.

SH. MAMIROV.

Tizimda yangicha xizmatlar

Mahalla xalq bilan davlat o'rtasida ko'prik bo'lishi kerak. Odamlarning quvonch-u tashvishlaridan doimo xabardor bo'lishi mahallaning asosiy vazifasidir.
SH. M. Mirziyoyev.

XALQIMIZ ISTIQBOLI UCHUN

Tuman hokimligining majlislar zalida mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari, mahallalarda faoliyat olib borayotgan tizim mas'ullari ishtirokida tadbir tashkil etildi.

Tadbirdi boshqarib borgan tuman hokimi A. Ashurov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 209-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston mahallalari Uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillash-tirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 402-sonli qarorining maqsad-mohiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tdi.

Farmonga ko'ra, O'zbekistonda hududlar, shahar va tuman kengashlari ega Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi, shuningdek, Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari, tuman va shaharlar bo'limlariga ega Mahallalar uyushmasi tashkil etilishi hamda "Mahalla budjeti" tizimi faoliyati yo'lga qo'yilishi to'g'risida ta'minlaydi.

Shuningdek, Farmonda yangi uyushma zimmasiga:

- mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi "ko'prik" vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishiga ko'maklashish;

- mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta'minlash;
- har bir fuqaro o'zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta'minlashda mas'uliyatni sezishi, boqimandalikka o'rganmaslik hissinin yanada kuchaytirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish;

- fuqarolarni o'z uyi va ko'chasini ozoda saqlashga, milliy qadriyat va urf-odatlarini hurmat qilishga chaqirish, ma'naviy va ma'rifiy ishlarda mahallaning o'rnini kuchaytirish, aholi o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralarini ko'rish;

- "mahalla yettiligi" (avvalgi beshlik) tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etishda ko'maklashish;

- mahallalardagi muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo'naltirish;

- mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag'al oilalarga ajratilayotgan budjet mablag'lari va boshqa mablag'larning maqsadli va manzilli yo'naltirilishini ta'minlash;

- mahallalarning moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag'larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy

etish;

- mahalla mas'ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko'nikmalari shakllanishiga ko'maklashishdan iborat ekanligini ta'kidlash.

Farmonga binoan mahalla raisi zimmasiga:

- Mahalla obodligini ta'minlash, shu jumladan, "Obod mahalla", "Obod ko'cha", "Obod xonadon" mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas'uliyatini oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko'chatlari ekish bo'yicha targ'ibot ishlarini amalga oshirish (Har oyda bir marotaba mahalladagi barcha ko'chalarda ommaviy hashar uyushtiradi, kamida 2 ta ehtiyojmand oilalarning ta'mirlab xonadonida qo'ni-qo'shnilarni jalb etgan holda, hashar tashkil etadi).

- Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish, sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni saqlash, to'y-marosimlarni isrofgarchiliklarsiz ixcham o'tkazilishini ta'minlash (Har chorakda bir marotaba madaniyat xodimlari, yozuvchi va shoirlarning aholi bilan milliy qadriyatlar va urf-odatlarini saqlash, to'y-marosimlarni ixcham o'tkazish bo'yicha uchrashuvlarni tashkil etilishini ta'minlaydi).

- Mahallaga birlashtirilgan davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etish va muammolarga yechim topishini ta'minlash (Fuqarolar yig'inining Kengashida har oyda kamida 5 ta mahallaga birlashtirilgan davlat organlari vakillarining mahallada amalga oshirgan ishlarini yuzasidan axborotini eshitib, muammolarni hal etishda ko'maklashadi).

- Mahallada faoliyat yurituvchi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, Yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodimlar faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, mahallani har tomonlama rivojlantirishda ular imkoniyatlaridan samarali foydalanish (Har haftada mahalladagi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodimlar hisobotini eshitadi va ularni har biri har oyda kamida 10 tadan muammoli masalalarni hal etishini nazoratga oladi).

- Mahalla hududida qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, shu jumladan, ta'lim, tibbiy xizmat, sport, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish kabi ustuvor vazifalar yuklatilganligini aytib o'tdi.

Hokim yordamchisi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar esa doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligini ta'minlash

choralarini ko'rish (Har oyda kamida 10 nafar ishsizning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash chorasini ko'radi), ma-

hallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit va subsidiyalar ajratilishida ko'maklashish (Har chorakda bir marotaba kredit yoki subsidiya ajratilgan fuqarolarning uyiga borib, tadbirkorlik va daromad topishga qaratilgan faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi), o'zini o'zi band qilgan hamda tashabbuskor fuqarolarning tadbirkorlikka qiziqishlarini aniqlash, ularning kichik biznes subyektiga aylanishiga yordam berish (Har chorakda kamida 5 nafar o'zini o'zi band qilgan hamda tashabbuskor fuqarolarni yakka tartibdagi tadbirkor yoki oilaviy korxona sifatida ish boshlashiga yordam beradi), aholiga ijara huquqi asosida ajratilgan yer maydonlari va tomorqalarda ekilgan ekinlar va yetishtirilgan mahsulotlar hisobini yuritadi, shuningdek, dehqon xo'jaliklari bilan eksportyor, broker va qayta ishlovchi korxonalarining hamkorligini tashkil etish, mahallalarda kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha mikroloyihalar manzilli dasturini shakllantiradi va loyihalarni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarni hal etishga ko'maklash, bo'sh turgan bino-inshootlar va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda auktsion savdolariga chiqarish choralarini ko'rish va nihoyat kambag'al oilalarning har biri uchun "individual dastur" ishlab chiqish va ularning daromadini oshirish chora-tadbirlarini belgilash kabildan iborat bo'lishini qayd etdi.

Shuningdek, yig'ilishda Yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faolining asosiy vazifalari to'g'risida batafsil to'xtalib, ular tomonidan shakllantiriladigan hujjatlarga ham izoh berdi.

Muzokarada so'zga chiqqan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman bo'linmasi rahbari I. Xoliqov, "Bog'ishamol" mahallasining raisi Q. Nishonov Prezidentimiz ta'kidlaganidek, davlatimizning eng katta zaminini bo'lgan mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirish uchun har birimiz vijdonan yondoshihimiz lozimligini aytib o'tdilar.

Ushbu Farmonning ijrosini ta'minlash esa soha vakillari zimmasiga ulkan mas'uliyat va o'z vazifasiga fidoyilikni talab etishini ham uqdirdi.

Ta'kidlanganidek, Farmonda Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashiga bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar) mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlariga tegishli Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi raisi va hokimlar raislik qilishi ham belgilangan.

M. TO'XTASHEVA.

I B R A T

Dedim:

- Beshikning tobutdan farqi nimada?

Dedi:

- Birinchisiga farishta misol go'dak yotqizilsa, ikkinchisiga butun gunohu savoblarga to'la amallar egasi yotqiziladi...

- O'xshashligi-chi?

Dedi:

- Ikkinchisiga ham yotqizilgan o'sha jon zod hech bir qiyinchiliksiz sig'adi...

Obiddin MAHMUDOVning "Farzandnoma" kitobidan olindi.

"Vatanparvarlik" oyligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishiga asosan joriy yilning 10 yanvar kuni Jizzax Garnizoni Komendaturasi, Paxtakor tumani hokimligi va tuman Mudofaa ishlari bo'limi bilan hamkorlikda "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida vatanparvarlik festivali tashkil qilindi.

MA'NAVIY QADRIYATLARGA SADOQAT NAMOYISHI



Unda mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchi yoshlari ishtirok etishdi.

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda xalqimiz tarixiga va ma'naviy qadriyatlariga yuksak hurmat tuyg'usini shakllantirish, Vatan himoyasiga, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta'minlashga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o'tashga tayyorlash maqsadida tashkil etilgan tadbir davomida zamonaviy qurol-yarog'lar namoyish etildi. Harbiylarning ko'rgazmali chiqishlari va faxriy qorovulning saf elementlari namoyishi ayniqsa, o'quvchi-yoshlar qalbida katta taassurot qoldirdi.

Festival doirasida harbiy orkestr ijrosidagi kuy-qo'shiqlar esa ertamiz egalarga ko'tarinki ruh, bayramona kayfiyat bag'ishladi.

Shuningdek, uchrashuv davomida yoshlarga milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan islohotlar borasida ham batafsil ma'lumotlar berildi.

SH. MAMIROV.

Davra suhbat

MAHALLA AHLI BILAN MULOQOT

Tumanimizdagi "Bog'ishamol", "Mingchinor" va "Nurli Pangat" mahalla ahl uchun "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



Mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollari ishtirokida tashkil etilgan tadbirida so'z olgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman bo'linmasi rahbari I. Xoliqov, tuman Madaniyat bo'limining mudiri - M. Eshimqulov, shuningdek, mahalla raislari, mehnat faxriylari so'ngi yillarda yurtimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, shu bilan birga, taraqqiyot yo'lidagi bu islohotlarga barcha birdek daxldor bo'lishi lozimligi to'g'risida gapirdilar.

Tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining raisi Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat Kengashi yig'ilishida ilgari surilgan ma'naviy-ma'rifiy sohani yanada rivoj-

lantirish, soha xodimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, aholining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yanada oshirish bo'yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar to'g'risida ham atroflicha tushuntirib o'tildi.

Darhaqiqat, so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar samarasi o'laroq aholining daromadlari sezilarli darajada ko'paydi va turmush darajasi yanada yaxshilandi. Mahallalarda tashkil etilgan tizim orqali "Ayollar daftari", "Temir daftari", "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turuvchilarga imtiyozli kreditlar ajratilib, ularning o'z tadbirkorlik sohasini yo'lga qo'yishlariga ko'maklashildi. Bu esa o'z navbati ming-minglab kam taminlangan aholi qatlamlarining oilaviy faravonligini taminlanishga xizmat qilmoqda.

O'z muxbirimizdan.

Payshanba - huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni

AMALIY ISHLAR MUHOKAMA QILINDI

Ma'lumki, haftaning payshanba kuni yurtimizda "Profilaktika kuni" deya, e'lon qilingan.

Shu kuni joylarda mahalliy hokimliklar, ichki ishlar organlari, prokuratura xodimlarining jamiyatda xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar hushyorligi va ogohligini oshirish, tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'tkazilayotgan tadbirlarda aholi bilan

Tumanimiz markazida faol fuqarolar ishtirokida tashkil etilgan navbatdagi tadbirida tuman IIB boshlig'i Yoqubjon Akaboyev hududda jinoyatchilikni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar, xususan, ko'rilayotgan choralar natijasida tumanda keyingi vaqtda uyushmagan yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar sonining kamayganligi to'g'risida so'z yuritdi. Shuningdek, yurtimizda yoshlarning o'qib, bilim olishi, halol mehnat qilib pul topishi va baxtli hayot kechirishi uchun yaratila-



yaqindan suhbatlashish, ayniqsa, profilaktika inspektorlari tomonidan o'zi biriktirilgan hududda sodir etilgan jinoyatlar to'g'risida berilgan kunlik ma'lumotlarni tahlil qilish, har bir jinoyatni mahallada keng jamoatchilik ishtirokida muhokama etish amaliyoti jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning yanada sog'lomlashishiga zamin yaratmoqda.

yotgan keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar, qolaversa, vaqtning qadriga yetish, undan unumli foydalanish kerakligi, kelajak uchun mustahkam poydevorni yoshlikda qurish muhim ekanligi haqidagi ta'kidladi.

Begzod URAKBAYEV,
tuman IIB HPB ijtimoiy
profilaktika guruhining
katta inspektori.

Maslahatxona

SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ

Savol: Yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylardan sotib olayotganda nimalarga e'tibor berish kerak?

Javob: - Yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarning sotuvchisi xo'jalik yurituvchi subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tganmi va ayni damda mavjudmi (tugatilmaganmi?).

- Qurilish ishlari amalga oshirilayotgan yer uchastkasi bo'yicha tegishli hujjatlar mavjudmi?

- Quruvchi firma bozorda o'z o'rniga egami?

- Qurilish loyihasi Qurilish vazirligi huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK tomonidan ekspertizadan o'tkazilganmi? Qurilish ishlari mazkur loyiha va ekspertiza xulosasi asosida amalga oshirilmoqdami?

Shuningdek, shartnomani ayrim bandlariga alohida e'tibor berish lozim va albatta kvartira sotib olishdan avval yurist maslahatini olish maqsadga muvofiq.

Voxidjon QODIROV,
tuman adliya bo'limining yuridik
xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti.

Savol: Murojaatlarni ko'rib chiqishni rad etgan mansabdorlarga qanday javobgarlik bor?

Javob: Qonunchilikka quyidagi harakatlar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hisoblanadi:

Murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish;

Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish;

Murojaatlarga yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik;

Murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish;

Jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta'minlamaganlik.

Ushbu harakatlarni sodir etish mansabdor shaxslarga BHMning 1 barovaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Farrux MIRZAYEV,
tuman adliya bo'limining
yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir

Ayni kunlarda davlatimiz rahbarining 2023 yil 22 dekabr kuni Ma'naviyat va ma'rifat markazi Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni isloh qilish haqidagi topshirig'ining ijrosini ta'minlash maqsadida joylarda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida ma'naviy-

deputatlari tuman Kengashi kotibiyat mudiri SH. Karimovlar so'zga chiqib, Ma'naviyat va ma'rifat markazi Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ko'tarilgan dolzarb muammolar to'g'risida to'xtalib o'tdilar.

Darhaqiqat, bugungi tahlikali, dunyo bo'ylab turli xil qarama-qarshiliklar, urush-



ma'rifiy va madaniy-musiqiy tadbirlar bo'lib o'tayapti.

Xuddi shunday tadbirlardan biri hududimizning "Paxtakor" mahallasida tashkil etildi. Unda mehnat faxriylari, tadbirkorlar hamda mahalla ziyolilari ishtirok etishdi.

Tadbirida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman bo'linmasi rahbari I. Holiqov, tuman Madaniyat bo'limining rahbari M. Eshimqulov, Xalq

u nizolar avj olayotgan bir vaqtda biz bir-dam va ahil bo'lishimiz, tinch va osoyishta yurtimizning qadriga yetishimiz, buning uchun ongu shuurimiz, yuksak salohiyatimiz va eng asosiysi ma'naviyat deb atalmish oliy fazilatimizni to'g'ri yo'naltirishimiz darkor.

N. QO'YLANOVA,
tuman Axborot-kutubxona
markazi mutaxassisi.

Kun ibрати

TEJAMKORLIK - ASOSIY MEZONIMIZ BO'LSA

Ona sayyoramizda istiqomat qilayotgan jamiki tirik mavjudotlar va o'simliklar olami uchun eng qadrlanadigan ne'matlardan biri bu - suv ekanligini yaxshi bilamiz.

Dunyo xalqlari orasida obi hayot deya atalgan ushbu tengsiz unurning bugungi kundagi qadri qanchalik ekanligini anglatish maqsadida men dars mashg'ulotlarimdan birini "Suv tejash" deya atadim va bolalarga dunyo bo'yicha chuchuk va sho'r suv miqdori orasidagi ulkan farqni turli ko'rgazmali qurollar orqali tushuntirishga harakat qildim. Dars nihoyasida kimki bugundan boshlab chuchuk suvning eng tejamkori bo'la olsa va buni kelgusi darsimizda isbotlab bera olsa, atoqli adib Chingiz Aytmatovning "Oq kema" nomli kitobi taqdim etilishini aytdim.

Keyingi kuni sinfxonaga yaqinlashar ekanman o'quvchilarimdan birining, "Bu mening fikrim edi, darrov ko'chirib olib sanda", degan gaplari qulog'imga chalindi. Ular mening topshirig'imga binoan tayyorlab kelgan mavzuni o'zlaricha muhokama qilayotgan edilar.

Sinfga kirdim va odatdagidek salomlashuvdan so'ng, bolalar daftarlarini birin-ketin stolim ustiga qo'ya boshladilar. Ularning nigohlaridan daftarlarini darhol tekshirishim va natijasini e'lon qilishimni intiqlik bilan kutayotganliklari yaqqol sezilib turardi.

Men ham ularning toqatlarini toq qilmay, mavzuga oid vazifani qay yo'sinda bajarganliklarini ovoz chiqarib o'qib berdim. Ma'lumotlar sizga ham qiziqmi, unda eshitng.

O'quvchim Dilhoza Xolmo'minova nushtaga ishlatilgan idishlarni har doim

jo'mrakni ochib qo'yib yuvar ekan, lekin bugun kichikroq tog'orachaga suv solib, idishlarni o'sha suvda yuvibdi va o'tacha 4 litr suvni tejab qolibdi.

Yana bir o'quvchi Elbek Shamshiyev to shu vaqtgacha maktabdan so'ng uyidagi chorva mollarini ichimlik suvi bilan sug'or-rar ekan. Kechagi mashg'ulotdan keyin uylaridan sal narida oqib o'tuvchi ariqdan chelaklab suv tashib, mollarini sug'organligi uchun taxminan 20 litr suvni tejashga erishibdi. Parizod, Gulsanam, Sitoralar ham hovlilariga ekilgan gullarning chanqo-g'ini ariqdagi suv bilan qondirishibdi.

Sherzod bilan Malika esa ko'chadagi kranning buzilib qolgan jo'mragini dadasi bilan sozlab qo'yishibdi

Daftarni o'qir ekanman, o'quvchilarimdan birining yuz-qo'lni yuvayotganda ham suvni tejash mumkinligi to'g'risida nimalarga e'tibor berish kerakligini yozganiga guvoh bo'ldim. Hammasidan ham uning Gullola opasi ichimlik suvi bilan oshxona gilamchasini yuvmoqchi bo'lganida, buvisiga aytib berib, ariqda oqayotgan suvda yuvdrib kelganligi va buning natijasida 100 litrdan ziyodroq chuchuk suvni tejashga erishganligini bilib, juda quvondim.

Sizchi, hurmatli iste'molchi, siz bugun qancha suvni tejadingiz?

Ozoda TOSHEMIROVA,
"Barkamol avlod" bolalar
maktabining ingliz tili fani to'garagi
rahbari.

EZGULIK MILLAT VA ZAMON TANLAMAYDI

Munosabat

Ko'plab yurtdoshlarimizga ma'lumki, qariyb 6 oydan ziyod vaqt mobaynida Koreya kinematograflari tomonidan suratga olingan "Jumong" nomli tarixiy serial "Kinoteatr" telekanali orqali namoyish etib kelinayapti.

Menimcha, ushbu serial o'sha davr voqeeliklarining bugungi kundagi ahamiyatini chuqur anglatgani bilan ham tomoshabinlarning e'tirofiga sazovor bo'layapti. Men ham serialni tomosha qilar ekanman, ayrim mansabdor shaxslar tomonidan quyi bo'g'in ahliga nisbatan qilingan zulm va adolatsizliklardan g'azablanaman, oddiy xalqning bir-birlariga mehr-oqibati, vatanparvarlik kabi insoniy tuyg'ularidan zavq olaman.

Joriy yilning 5 yanvar kuni serialning navbatdagi qismini tomosha qilayotganimda hali maktabga chiqmagan nevaram xonamga kirib keldi va men bilan birgalikda kinoni tomosha qila boshladi. Bunda valiahd shahzodaning qo'shni qabilaning himoyasiz qolgan

keksa kishilari, ayollar va yosh bolalarining ayovsiz qirib tashlangani aks etgan qismi qo'yilayotgan edi. Atrofni o'rab olib, barcha asirlarni qilichdan o'tkazayotgan qattol kimsalardan jon saqlashga urinayotgan odamlarning holatiga rahmi kelgan nevaram televizorga yaqinroq kelib, "Tez Jumonga telefon qil, tezroq" deya, 3-4 marotaba takrorladi. Minglab kilometr olislikda va bir necha asr ilgari bo'lib o'tgan mudhish voqeaga nisbatan ilm-fan va texnika taraqqiyoti o'zining avj pallasiga chiqqan zamonda tug'ilgan va endigina 3 yoshni qarshilayotgan nabiramning fikri menga qattiq ta'sir qildi. So'z orasida o'sha davr haqida bir oz tushuncha bergan bo'ldim. Va, amin bo'ldimki, uning kichkina yuragida mazlumlarga nisbatan mehr-shafqat, adolatsizlikka esa qahr-g'azab tuyg'usi allaqachon shakllanib ulgurgan.

M. TO'XTASHEVA.

Aniq va tabiiy fanlar olimpiadasida

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7- va 8-sinf o'quvchilari o'rtasida "Al-Xorazmiy" nomidagi aniq va tabiiy fanlar olimpiadasining tuman bosqichiga joriy yilning 10-yanvar kuni start berildi.

Tabiiy va aniq fanlarga qiziquvchi, bilimli, ijodkor yoshlarni aniqlash hamda ulardagi ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan olimpiadada 19 ta umumta'lim maktabining 7- va 8-sinf o'quvchilari orasidan saralab olingan 177 nafar iqtidorli yoshlar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdilar.

IQTIDORLILAR SARALANDI



Test sinovi shaklida o'tkazilgan tanlovda malakali fan o'qituvchilari tomonidan maxfiyligi ta'minlangan holda tayyorlangan 30 ta test savollari ishtirokchilarga taqdim etildi. Ushbu jarayonning adolatli va shaffofligini ta'minlash maqsadida har bir sinf uchun maxsus xonalar nizom talabi asosida shay holatga keltirildi va mas'ul kuzatuvchilar nazorati yo'lga qo'yildi.

Mazkur olimpiadadan ko'zlangan asosiy maqsad, tabiiy va aniq fanlarga qiziquvchi, bilimli, ijodkor yoshlarni aniqlash hamda ulardagi ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iboratdir.

SH. MAMIROV.

Aytish joizki, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi kunda yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi.

YUKSAK INSONIY TUYG'ULAR TARANNUMI

Bu borada hududimizdagi 14-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabining tomoshalar zalida tashkil etilgan tadbir o'quvchi-yoshlarning qishki ta'tilda bo'sh vaqtlarini maroqli o'tishini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etdi.

Bolajonlar e'tiboriga havola etilgan ushbu tomoshada tuman Madaniyat markazi qoshida faoliyat yuritayotgan "Ko'zmunchoq" havaskorlik qo'g'irchoq teatrlarining iqtidorli san'atkorlari tomonidan "Yangi yil sarguzashtlari"



Yangi yil sarguzashtlari

nomli teatrlashtirilgan dastur namoyish etildi.

Sahnada turli ertak qahramonlari timsolida yaxshilik va ezgulikning hamisha yovuzlik ustidan g'olib bo'lishi, quvnoq masxarabozlarning qiziqarli chiqishlari ularning

qalbiga olam-olam quvonch ulashdi. Shu kuni tashkil etilgan qiziqarli savol-javob viktorina o'yinlari va ko'rgazmali chiqishlar ham ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Dastur davomida markaz qoshidagi "Gulzor" xalq ashula va raqs ansambli xonandalari o'zlarining diltortar qo'shiqlari bilan bolajonlarni raqsga chorladilar.

Darhaqiqat, bu kabi bayram tomoshalari bolajonlar qalbida yuqoridagi kabi yuksak insoniy tuyg'ularni mustahkamlaydi, ularni ona yurtga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi, asar qahramonlaridan saboq olib, faqat a'lo baholarga o'qishga, tinch va osuda hayotimizning qadriga yetishga undaydi.

O'z muxbirimizdan.

E'OLON

MEROSXO'RLAR DIQQATIGA!

Tuman notarial idorasida marhum Shodiyev Jamshid Zarifovich (2019 yilning yanvar oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

Tuman notarial idorasida marhum Qirjigitov Akbar Ulug'bek o'g'li (2023 yilning iyun oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

Tuman notarial idorasida marhum Umirov Ergash (1997 yilning sentabr oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

Tuman notarial idorasida marhum Usmanov Ilxom Turdaliyevich (2023 yilning aprel oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

Tuman notarial idorasida marhum Ziyayeva Norxal Irgashevna (2021 yilning noyabr oyida vafot etgan)ga qarashli mol-mulk masalasida meros ishi ochildi. Shu mol-mulk masalasida biror fikr yoki taklif bo'lsa, merosxo'rlar tuman notarial idorasiga murojaat etishlari mumkin.

«PAXTAKOR HAYOTI»

Tahririyat manzili:

130900. Paxtakor shahri.
Yunus Rajabiy ko'chasi, 2-uy.
Telefon: (72) 353-11-58
Nashr indeksi - 3512

Bosh muharrir v.v.b.

Maxfirat TO'XTASHEVA

Mas'ul kotib:

M. NE'MATOVA

Sahifalovchi:

R. MAHMUDOV

Gazeta 2006 yil 25 dekabrda Jizzax viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 06-010-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan.

«Rastr Plyus Print» mas'uliyati cheklangan jamiyat bosmaxonasida ofset usulida bosildi.
Manzil: 130100. Jizzax sh.
Sayiljoyi ko'chasi, 4-uy.

Bosishga berildi: 17.01.2024 yil soat 11-00.
Bosildi: 17.01.2024 yil.
Buyurtma:
Adadi 1100 nusxa.
Qog'oz bichimi - A 3

OBUNA - 2024

OBUNA - 2024

OBUNA - 2024

OBUNA - 2024

OBUNA - 2024

OBUNA - 2024

QADRLI YURTDOSHLAR!

Respublikamizda chop etilayotgan barcha vaqtli matbuot nashrlari qatori tumanimiz ko'zgusi - "Paxtakor hayoti" gazetasiga ham 2024 yil uchun obuna jarayoni davom etmoqda.

2024 yilda gazetamiz 55 yoshni qarshilaydi. Shunga ko'ra, gazetaning yubiley bayramini keng nishonlash istagidamiz. Mana shu quvonchli sana munosabati bilan 2024 yilda hududimizdagi barcha korxona, tashkilot, muassasa va idoralar bilan hamkorlikni yanada oshirib, o'zaro manfaatdorlikni yo'lga qo'yish harakatidamiz.

Tuman hayotining ko'zgusi bo'lgan gazetamizga tahririyatning o'zidan naqd pul va pul o'tkazish yo'li bilan shartnoma asosida obuna bo'lishingiz mumkin. 2024 yildan boshlab gazeta sonlarini obunachilarga tahririyatning o'zidan yetkazib berish xizmati to'liq yo'lga qo'yiladi.

Obunaning tahririyatdagi yillik bahosi - 300 000 (uch yuz ming) so'm.

ESLATMA: Gazetamizga obuna bo'lgan korxona, muassasalar va tashkilotlar nafaqat tumanimiz hayotidagi yangiliklar bilan tanishishlari, balki o'zlari mehnat qilayotgan jamoalardagi yangiliklarni, xodimlarning tug'ilgan kun, yubileylari bilan bog'liq tabriklarni, reklama va e'lonlarni o'z vaqtida chop etish imtiyoziga ega bo'ladi.

Obuna masalasi bo'yicha tahririyatga 353.11.58. telefon raqami orqali murojaat etishingiz mumkin.



SO'Z KO'RKI MAQOL



YOMG'IRSIZ BULUTDAN NE FOYDA, MEHNATSIZ ODAMDAN NE NAF.